


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 30 304,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 112,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,5 % ga yetdi.



**2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	
I. YAHM, jami	25 469,6	30 304,7	105,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 690,5	29 603,1	105,3
mahsulotlarga sof soliqlar	779,1	701,6	108,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 690,5	29 603,1	105,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 802,9	9 332,3	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 772,0	6 797,7	106,9
sanoat	4 087,7	4 900,7	106,4
qurilish	1 684,3	1 897,0	108,2
xizmatlar	11 115,6	13 473,1	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 936,2	2 382,7	107,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 847,1	2 258,2	108,1
boshqa xizmat tarmoqlari	7 332,3	8 832,2	104,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 322,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 % ga yuqoridir.

2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



2022-2023-yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





**2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,6	31,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23,4	23,0
sanoat	16,6	16,6
qurilish	6,8	6,4
xizmatlar	45,0	45,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,8	8,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,5	7,6
boshqa xizmat tarmoqlari	29,7	29,9

**2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 31,5 % ni, sanoat tarmog'i 16,6 % ni, qurilish 6,4 % ni va xizmatlar sohasi 45,5 % ni tashkil qildi.



2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


2023-yilning yanvar-iyunida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,5 %), sanoatda – 106,4 % (16,6 %), qurilishda – 108,2 % (6,4 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (45,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,5 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,1 % (7,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (29,9 %) iborat bo'ldi.



YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,3 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,0 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) va xizmatlar sohasi – 2,4 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.


Mahsulotlarga sof soliq-larning o‘shishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko‘paydi.

**2023-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o‘shishida tarmoqlarning
hissasi (jamiga nisbatan % da)**



2023-yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 112,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,1 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,8 % qayd etildi.

**2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2022-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning
hajmi va YAHMdagi ulushi**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 20 458,9 mlrd. soʻmni tashkil etib (2022-yilning yanvar-iyun oylarida – 17 079,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,1 % ni tashkil qildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida – 69,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

